



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil "28" dekabr

BUYRUQ № 89

Toshkent sh.

**"Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari
hajmini statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom"ni tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 21- dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF- 269- son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustda "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta'minlash, rasmiy statistika sohasida qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmini statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B.Begalov